

**O'QUVCHILAR BILAN KASBLAR OLAMIGA SAYOHAT****MASHQLARINI O'TKAZISH****Xoliyorova Tamara Murodovna**

Qashqadaryo viloyati Yakkabog'

tumani 17-maktab psixologi

Annotatsiya: Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim jarayon. Inson biror kasbni tanlar ekan albatta o'z qiziqish va qobiliyatlarini inobatga oladi. Kasb tanlash jarayoni murakkab bo'lib, bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ushbu maqolada kasb tanlash jarayonida darsdan tashqari tashkil etiladigan metodik jarayonlarning kasb tanlashga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kasb tanlash, dars jarayoni, darsdan tashqari mashg'ulotlar, metodika, ochiq muloqot, texnologiya.

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir. Psixologlar bunday mas'uliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo'llashni taklif qilishadi. Bu boradagi tadqiqotlarning yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:

- o'quvchilarning kasblar olamida yo'nalish olishiga yordam beruvchi hamda o'z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko'nikmalari zarur darajasini ta'minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;



- o'quvchilarning kasb tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o'rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;
- yoshlarga kasbiy maslahatlar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;
- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;
- bitiruvchi sinf o'quvchilarini ishchi kasblarga yo'naltirishning mazmuni, shakl va metodlari;
- O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturni amaliyotga tatbiq etish sharoitida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning pedagogik sharoitlari;
- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo'llash ishini boshqarish xususiyatlari.

O'quvchilarni kasb tanlashlarida dars jarayonlarida ularga kasblar haqida berilgan ma'lumotlar juda katta ahamiyatga ega. Ammo kasb tanlash murakkab jarayonligini inobatga olib, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan ham unumli foydalanib, ularni og'ishmasdan kasb tanlashda to'g'ri tanlov qilishlariga erishish juda muhimdir. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o'quvchilari bilan ishlash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan



o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma’naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun jamoa xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi. Ekskursiyalar chog‘ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e‘tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o‘qtirib o‘tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o‘quvchilari bilan ishlash — biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqish, odatda, kasbga bo‘lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo‘naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o‘quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish muhimdir. Kasbga yo‘naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo‘jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, viktorinalar, o‘yinlar katta rol o‘ynashi lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo‘naltirish ham boshlanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilar bilan ochiq muloqotlar, davra suxbatlari, ishbilarmonlar bilan uchrashuvlar, rolli o‘yinlardan iborat mashg‘ulotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Masalan, “Kasblar olamiga sayohat” rolli o‘yin mashg‘uloti. Ushbu mashg‘ulot uchun avvaldan tayyorgarlik o‘riladi. Bir nechta kasblar tanlab olinadi va shu kasblar haqida to‘liq ma’lumotlar to‘planadi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar aynan ma’lum bir kasb egalarini rolini ijro etadilar. Ularning ish jarayoni, mehnat liboslari, foydalanadigan ish qurollari bilan yig‘ilgan o‘quvchilarni tanishtiradilar. Bu orqali o‘quvchilar kasblar



haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'ladilar. Mashg'ulotga aynan shu kasb egalarini taklif etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ularning kasbiy faoliyatlari haqidagi ma'lumotlari o'quvchilarni ko'proq qiziqtiradi. Shuningdek o'quvchilar bilan asb-hunar maktablariga sayohatlar uyushtirish ham mumkin. Bu sayohatlarda o'quvchilar kasblar haqida tasavvurlari yanada kengayadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-XI) sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi — bu bosqichida o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining yuqori sinflarida dars va darsdan tashqari jarayonda amalga oshirilgan ishlar egallaydilar. Bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omilni ajratish mumkin, ya'ni birinchidan, kasb tanlashga yo'llash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga ega bo'ladi. Kasbga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raev R.X., Tolipov O' .Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar ga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. T.:FAN. 2004. 120 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent.: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
3. Boltaboev S.A. Tolipov U. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947-son Farmon. www.lex.uz
4. Jumaboyeva M. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014. -21 b. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari.- Nukus. 2013. -182 b.
5. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali.
6. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi portali
7. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta'lim markazi sayti